

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOATOV RASUL MUXITDINOVICH

MASHRAB DUNYOQARASHIDA TASAVVUFIY G‘OYALAR TADQIQI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Soatov Rasul Muxitdinovich

Mashrab dunyoqarashida tasavvufiy g‘oyalar tadqiqi 3

Соатов Расул Мухитдинович

Изучение мистических идей в мировоззрении Машраба 23

Soatov Rasul Mukhitdinovich

Study of mystical ideas in Mashrab world view 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOATOV RASUL MUXITDINOVICH

MASHRAB DUNYOQARASHIDA TASAVVUFIY G‘OYALAR TADQIQI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fal/382 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimxonov Mo'min
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Norov Taji Omonovich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Mahmudov Ravshanbek Jalilovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni 15-uy. Tel: (8366) 239-13-87; faks: (8366), 239-11-40, 239-18-92; e-mail: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105 xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, universitet xiyoboni 15-uy. Tel: (0366) 239-13-87, ; faks: (0366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kunida tarqatildi.
(2024-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon islom madaniyatining betakror mulki hisoblangan Sharq mutasavvif allomalari ma'naviy boyligi, islom olami balki butun bashariyatning ma'naviyati, madaniyatining rivojlanishiga, umuminsoniy qadriyatlarni boyitishda o'zining dolzarbligi bilan alohida o'rin tutmoqda. Zero, mutafakkirlarning ilmiy-ma'naviy qarashlari, ijtimoiy-falsafiy merosi va ilg'or diniy-tasavvufiy g'oyalari yosh avlod ma'naviy-axloqiy tafakkuri rivojiga ta'sir etuvchi manba bo'lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi globallashgan davrda jahonda diniy mutaassib g'oyalar xurujiga qarshi turish va yoshlar diniy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda mutafakkirlarning ilm va ma'rifatga da'vat etuvchi falsafiy g'oyalarini targ'ib qilish o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Dunyo ilm-fani rivojida tasavvufiy-irfoniy meros, tasavvuf tariqatlari g'oyalaridagi fundamental uyg'un jihatlar, mutafakkirlar ijodini baholash, qiyoslash, umumlashtirish va ularda bayon etilgan sharqona odob-axloq talablarini o'rganish bo'yicha muhim amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Boborahim Mashrabning hayoti, ijodiy faoliyati va ma'naviy merosi o'sib kelayotgan yosh avlod ongini, sog'lom e'tiqodiy tafakkurini shakllantirishda hamda hayotiy pozitsiyasini rivojlantirishda nazariy-metodologik va tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lmoqda. Shu ma'noda mutafakkir ijtimoiy dunyoqarashidagi ezgulik, millatparvarlik, tinchlik, do'stlik, halollik, poklik, nafs tarbiyasi kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar yoshlarimizda bag'rikenglik tuyg'usini oshirishda va milliy o'zlikni anglashda muhim ilmiy tarbiyaviy meros sifatida uning chuqur mushtarak jihatlarini tadqiq qilish zaruratini taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlari, kalom va ijtimoiy-falsafiy tafakkur, ma'naviy-axloqiy merosning jamiyat tafakkuriga ta'sirini o'rganish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. "Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi"¹. Shu jihatdan ham mutafakkir Boborahim Mashrab ijodiy merosi jahon miqyosida gumanizm va axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, komil insonni tarbiyalash kabi g'oyalarining mazmun-mohiyatini ilmiy nuqtayi nazardan yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Mashrab tasavvufiy qarashlaridagi vatan, millat to'g'risidagi ta'limiy-axloqiy, diniy-ma'rifiy, didaktik-gumanistik g'oyalarni uslubiy yondashuvlar asosida falsafiy tadqiq etish ilmiy jamoatchilikning tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-son Qarori // Xalq so'zi, 2018 yil, 15 may.

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarinin tashkil etish to'g'risida" Qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Boborahim Mashrab tarixiy, falsafiy-axloqiy, estetik, adabiy merosining diniy-tasavvufiy yo'nalishdagi gumanistik g'oyalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijlik sharqshunos, tarixchi olimlar A.D.Shmidt¹, Herman Vamberi², M.Hartmann³, G.Ritter⁴, S.Ulug'dog'⁵, L.Massinon⁶, Ditrel Den Renn⁷, I.Golsiyer asarlarida Boborahim Mashrab ijodining ayrim jihatlariga e'tibor qaratganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.L.Vyatkin⁸, N.I.Veselovskiy, N.S.Likoshin, U.Ye.Ostroumov, A.P.Xoroshxin⁹, N.A.Pantusov¹⁰, L.Mironovalar mutafakkir Mashrab ijodining ba'zi jihatlarini tadqiq qilganlar.

O'zbekistonlik sharqshunos olimlar o'rganilayotgan mavzuning falsafiy ildizlarini tadqiq etishda A.Abdug'afurov, V.Abdullayev, G'.G'ulom, A.Hayitmetov, I.Sulton, I.Abdullayev, A.Fitrat, M.Zokiriy, J.Yusupov, N.Komilov, G'.Salomov, I.Haqqulov, V.Rahmonov va boshqalarning ilmiy ishlariga¹¹ munosabat bildirildi. Mashrabning ijtimoiy-ma'naviy merosi va

¹ Schmidt A. D. Alexandria. –Taschkent, 1923.

² Wamberi H. Westasien-Unterricht. -Leipzig, 1897; Wamberi H. Zwei moderne zentralasiatische Dichter, Munis und Amiriy. –Wien, 1892.

³ Hartman Martin. Devoni Mashrab und König Mashrab. –Berlin; Hartman Martin. Ein Schritt. -Berlin, 1903; Hartman Martin. Ein weiser Derwisch und heiliger Atheist. -Berlin, 1902.

⁴ Ritter H. Abu Yazid al-Bistami. UDMI; Ritter H. Gunaid. IA, III, pp. 241-242.

⁵ Улудог' С. Тасаввуф терминлари луғати. -Истанбул, 1995.

⁶ Louis Massignon, Hallaj mystic and Martur (translated, edited and abridged by Herbert Mason), Princeton University Press, Princeton, New York.

⁷ Ditrel den Ren. Wissenschaftsreise nach Großasien. -Parij, 1895.

⁸ Вяткин В.А. Ферганский мистик Дивана-и Машраб. –Т.: 1923; Веселовский Н.И. Восточные заметки. – Петербург, 1895; Ликошин Н.С.. Дивана-и Машраб. - Т.: 1910; Ликошин Н.С. Туркестанские ведомости. 1905. -№ 53.

⁹ Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. -Санк-Петербург, 1876.

¹⁰ Пантусов Н.Н. Протоколы. Туркестанского крупка любителей археологии. -Туркестан, 1899-1900.

¹¹ Гафур Фулом. Адабий-танкидий мақолалар. XI том. - Т.:Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. II том. - Т.: Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва

dunyoqarashini o'rganishda I.M.Mo'minov, V.Y.Zohidov, M.M.Xayrullayev, B.O.Turayev, H.Aliqulov, Y.Jumaboyev, A.J.Sharipov, M.Nuritdinov, D.Hamroyeva, Q.Ro'zmatzoda, G.Navro'zova, M.Xoshimxonov, Q.To'xсанov va boshqa faylasuflar salmoqli ish qildilar¹. Mustaqillikning dastlabki yillarida allomaning 350 yillik yubileyi munosabati bilan ko'plab ilmiy maqolalar chop qilindi. Ularda Mashrab ijodiyotining muhim jihatlari ochib berildi.

Boborahim Mashrab merosini o'rganish bo'yicha falsafa fani tarixida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramay, allomaning falsafiy qarashlaridagi ma'naviy-tasavvufiy g'oyalar hozirgi zamon nuqtayi nazaridan maxsus o'rganilmaganligi sababli, ushbu ishni "Mashrab dunyoqarashida tasavvufiy g'oyalar tadqiqi" deb nomlanishiga asos bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi davrda falsafa, estetika, axloqshunoslik fanlarida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, Boborahim Mashrab tasavvufiy merosining yoshlar axloqiy-estetik tafakkurini shakllantirishdagi o'rni haqida alohida va keng qamrovli tadqiqot ishi amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajariladigan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 415-U raqamli "Globallashuv sharoitida yangi taraqqiyot

санъат нашриёти, 1980; Абдуғафуров А. 1. Ўзбек адабиёти тарихи. II том. - Т.: 1984; 2.Машраб. Сўзбоши ўрнида. - Т.: 1971; 3. Эрк ва эзулик куйчилари. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; 4. Бобораҳим Машраб.- Т.: 1979; 5. Машраб. - Т.: 1963; Ҳайитметов А. 1. Ҳаётбахш чашма. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974; 2. Машраб лирикаси // Шарқ юлдузи. № 3.-1980; 3. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970; Султон И., Ахмедов В. Асл Машраб. - Т.: 1936; Абдурауф Фитрат. Машраб // Танл. асарлар. - Т.: 2-жилд. Маънавият, 2000; Зокирий М. Адабий-танкидий очерк. - Т.: 1966; Юсупов Ж. Ҳақиқий Машрабни излаб. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990; Абдуллаев И. «Мабдаи нур»га сўзбоши // Шарқ юлдузи. № 12. 1992; Ҳаққулов И. 1. Адабиёт ва санъат. - Т.: 1988; 2. Тасаввуф ва шеърят. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992; Комилов Н., Саломов Ғ. Шоири анализ. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990; Раҳмонов В. Буюк исёнкор. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

¹ Мўминов И. Танл. асарлар. I-том. – Т.: Фан, 1969; Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири.- Т.: "Фан", 1971; Алиқулов Ҳ. Ўрта Осиё халқлари хурфикрлиги тарихидан. IV-боб. - Т.: "Фан", 1990; Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. - Т.: "Фан", 1991; Шарипов А. Мироззрение Машраба / Очерки истории общественно философской мысли в Узбекистане. - Т.: "Фан", 1977; Ҳамроева Д. Бобораҳим Машраб ғазаллари поэтикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Т.: 2003; Ҳошимхонов М. Машраби мўтабар ўзум. (Машрабнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари). Монография. –Т.: Шарқ, 2001. 7,5 б.т.; Ҳошимхонов М. Машраби мўтабар ўзум. (Машраб ва Мовароуннаҳрда ижтимоий таназзулнинг социологик таҳлили). (XVII-XVIII асрлар). Монография. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. 12 б.т.; Ҳошимхонов М. Бобораҳим Машраб ҳаёти ва ижодий фаолияти. Монография. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. 7 б.т.; Ҳошимхонов М. Машраби мўтабар ўзум. (Бобораҳим Машраб ижтимоий-маънавий, диний-тасаввуфий, ахлоқий мероси ва унинг илмий-бадиий адабиётдаги таъкиди). (XVII-XVIII асрлар). Монография.- Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2008. 54 б.т.; Ҳошимхонов М. Машраби мўтабар ўзум. (Машрабнинг ижтимоий-фалсафий дунёқарашлари). Тўлдирилган иккинчи нашр. Монография. –Т.: "IXTIYOR RISO PRINT", 2014. 22,5 б.т.; Ҳошимхонов М. Бобораҳим Машраб ва унинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари / Ўзбекистон фалсафаси тарихи. II-жилд. Ҳаммуаллифликда. Монография.- Т.: "Мумтоз сўз", 2017. 30 б.т. (Тадқиқот А-1-149 рақамли "Ўзбекистон фалсафаси тарихи (уч томлик, ўзбек тилида) асарининг II томини тайёрлаш ва нашрдан чиқариш" мавзусидаги грант лойиҳаси доирасида тайёрланган); Ҳошимхонов М. Бобораҳим Машраб ижодини ўрганиш. Методик қўлланма. Т.: «Орзу» нашриёти, 2002.; Қахрамон Тўхсанов. Бобораҳим Машраб "Мабдаи нур" асарининг манбалари ва мавзулар олами. –Т.: Globe Edit, 2022. ва бошқалар.

strategiyasi va falsafa fanlarining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Boborahim Mashrabning diniy-tasavvufiy merosining umuminsoniy va insonparvarlik mohiyatini yoritish hamda uning jahon falsafiy tafakkuri rivojidagi o‘rnini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Boborahim Mashrab yashagan tarixiy davrdagi iqtisodiy hayot va siyosiy vaziyatning o‘rni, tasavvuf ta’limoti falsafiy bilishning nazariy-metodologik asosi ekanligini, shuningdek, ulug‘ alloma merosining ilmiy-falsafiy ahamiyatini yoritish;

Boborahim Mashrabning “Mabdayi nur” asari tadqiqi, mutafakkir shoir she’riyati, uning ijodiga mutasavvif allomalar ta’sir doirasi, tasavvuf ta’limotining mohiyati, so‘fiy shoir g‘azallarida nafs tarbiyasi tadqiqini diniy manbalar asosida ochib berish;

Boborahim Mashrab merosida dinning axloqiy–estetik asoslarini o‘rganish orqali adabiyot, san’at ilohiyotga bo‘lgan g‘oyaviy qarashlarini tadqiq qilish;

Mashrab ijodidagi vatanni sevish, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, yaxshilik, umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi mazmun–mohiyatini o‘rganish;

mutafakkir shoir dunyoqarashida barkamol inson haqidagi g‘oyalar talqini, Mashrab tasavvufiy qarashlarining muhim xususiyatlarini zamonaviy yondashuv asosida dalillash va samarali foydalanish bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Boborahim Mashrab dunyoqarashida tasavvufiy g‘oyalar aks etgan falsafiy meros hamda mutafakkir qarashlari to‘g‘risidagi ilmiy manbalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Boborahim Mashrab tasavvufiy dunyoqarashidagi barkamol inson haqidagi g‘oyalar mohiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Boborahim Mashrab merosining davr ijtimoiy-ma’naviy muhitiga ta’siri natijasida mutafakkirning yassaviya, naqshbandiya, kubroviya tariqatlari targ‘ibotchisi sifatida saloqlar g‘oyalarini ijtimoiy adolat tamoyili darajasida tatbiq etgani isbotlangan;

Mashrab zamondoshlari bo‘lgan mutafakkirlar So‘fi Olloyor, Xojamnazar Huvaydo va Saido Nasafiy kabi ulug‘ allomalarning ta’limiy-axloqiy, diniy-tasavvufiy, vatan, millat to‘g‘risidagi ilg‘or fikrlarini yangi darajada talqin qilgani va bu yoshlar ma’naviy kamolotida birlamchi omilga ega ekanligi dalillangan;

Mashrab Maxdumi A’zam, Ofoqxoja, Yassaviy, Navoiy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Nasimiy kabi saloqlari tasavvufiy-irfoniy, gumanistik mumtoz-falsafiy qarashlari an’analarini davom ettirib, turkiy mutafakkirlar ichida insonni axloqiy komillikka undovchi o‘ziga xos tasavvufiy uslubda meros yaratganligi isbotlangan;

Boborahim Mashrab dunyoqarashida markaziy o‘rin egallagan tasavvufiy g‘oyalar bilan bog‘liq nafs tarbiyasi, barkamol inson, elparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik haqidagi gumanistik qarashlari bugungi jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi falsafiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Mashrabning hayoti va ijodini yoritishda u yashagan Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli, madaniyat va ilm-fan rivoji mutafakkir ijodiyotini anglashda uning hayoti va ijodiy merosining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning ijtimoiy-axloqiy fikr rivojida tutgan o‘rnini o‘rganishga qaratilgan metodik qo‘llanma ishlab chiqilgan;

Mutafakkir tasavvufiy g‘oyalar tadqiqidan, uning merosidagi hozirgi kun uchun dolzarb bo‘lib turgan turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat” niqobidagi xurujlar ta’sirida jamiyatdagi ildiz otayotgan ma’naviy-axloqiy tanazzulni bartaraf qilish va barkamol yoshlar tafakkurida, ma’nan yetuk va sog‘lom fikrli ma’naviy-axloqiy shaxsni shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha yozilgan maqolalarning O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi, natijalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri, faylasuf va mutasavvif, XVII-XVIII asrlar tasavvufiy g‘oyalar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Boborahim Mashrab haqidagi ma’lumotlarni iste’molga kiritish, uning tasavvufiy-irfoniy merosini jamiyat, omma orasida, xususan, yosh avlod tafakkuriga yetkazish, uning ma’rifiy, ta’limiy, didaktik, axloqiy g‘oyalarini ta’lim-tarbiya, ijtimoiy-gumanitar ilm-fan sohasiga tatbiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Falsafa tarixi”, “Etika”, “Estetika” “Pedagogika”, “Dinshunoslik” “Dinlar falsafasi”, “Madaniyatshunoslik” va “Adabiyot tarixi” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma va o‘quv majmualarini yaratishda, tasavvuf va irfoniy lug‘atlarni boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mashrab dunyoqarashida tasavvufiy g‘oyalar tadqiqi, undagi ilmiy takliflar bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mashrabning ijtimoiy-tasavvufiy merosi, uning yassaviya, naqshbandiya, kubroviya tariqatlari targ‘ibotchisi, salaflar g‘oyalarini ijtimoiy himoya tizimida adolat tamoyilini tatbiq etishga oid taklif va tavsiyalardan Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazi tomonidan 2018-2019-yillarda bajarilgan “Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik ta’sirini oshirishning innovatsion yo‘llarini joriy etish” mavzusidagi 68-11/78 raqamli amaliy grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyat “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining 2022-yil

12-oktabrdagi 16-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur grant loyihasida belgilangan chora-tadbirlar, ta'lim tizimida talabalarning ma'naviy madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish borasidagi vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

Mashrab zamondoshlari bo'lgan mutafakkirlar So'fi Olloyor, Xojamnazar Huvaydo va Saido Nasafiy kabi ulug' allomalarning ta'limiy-axloqiy, diniy-tasavvufiy, vatan, millat to'g'risidagi ilg'or fikrlarini yangi darajada talqin qilgani va bu yoshlar ma'naviy kamolotida birlamchi omilga ega ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan "Yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlar, kattalarga hurmat, yoshlarga g'amxo'rlik, ezgulik va insoniylik, mehribonlik va bag'rikenglik, Vatan va xalqiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida "Ajodlarga munosib voris bo'laylik" nomli 18-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 28-fevraldagi 60-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlar, kattalarga hurmat, yoshlarga g'amxo'rlik, ezgulik va insoniylik, mehribonlik va bag'rikenglik, vatan va xalqiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilgan;

Mashrab Maxdumi A'zam, Ofoqxoja, Yassaviy, Navoiy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Nasimiy kabi salafлари tasavvufiy-irfoniy, gumanistik mumtoz-falsafiy qarashlari an'analarini davom ettirib, turkiy mutafakkirlar ichida insonni axloqiy komillikka undovchi o'ziga xos tasavvufiy uslubda meros yaratganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturidagi VI. "Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlari"ning "Milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasida" nomli 6.1 bandi va "Milliy, tarixiy-ilmiy madaniyat va manbalarni o'rganish va targ'ib etish" nomli 6.3 bandlari ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2022-yil 14-dekabrda 02/02-259-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiya tizimidagi xodimlarining siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv-uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarini samarasini oshirishga xizmat qilgan;

Boborahim Mashrab dunyoqarashida markaziy o'rin egallagan tasavvufiy g'oyalar bilan bog'liq nafs tarbiyasi, barkamol inson, elparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik haqidagi gumanistik qarashlari bugungi jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy xususiyatga ega ekanligiga oid ilmiy asoslangan xulosalar va taklif-tavsiyalardan Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan "Assalom Jizzax" va "Tarix tilga kirganda" ko'rsatuvlarining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-noyabrda 14-11/823-son ma'lumotnomasi). Natijada, olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarida, mamlakatimiz yoshlari ongida ijtimoiy-

siyosiy islohotlarning mohiyatini tushuntirishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda va 2 ta xalqaro jurnallarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XVII-XVIII asrlar Movarounnahr iqtisodiy hayoti, siyosiy vaziyati davrida tasavvuf ta'limotining o'rni”** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat. Uning birinchi paragrafi “Tasavvuf ta'limoti falsafiy bilishning nazariy-metodologik asosi” deb nomlanadi. Boborahim Mashrab XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufining ulkan namoyandasi, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari g'oyalarining targ'ibotchisi, mutasavvif shoir va so'fiy alloma sifatida tasavvuf tarixi va turkiy-forsiy adabiy-ma'naviy hayotida o'ziga xos o'ringa ega mutafakkirdir. Mashrabning tasavvufiy dunyoqarashida iz qoldirgan va uni hayratga solgan ilk zohid-so'fiylar Muhammad (s.a.v.), Robia Adaviya, Muhammad G'azzoliy, Mansur Halloj, keyinchalik X-XV asrdan to o'zi yashab o'tgan davrgacha bo'lgan tasavvufning ulkan namoyandalari Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Najmiddin Kubro, Abdulxoliq G'ijduvoni, Boyazid Tayfur al-Bistomiy, Jaloliddin Rumiy, Junayd Bag'dodiy, shayx Shibliy, Ibrohim Adham, Ibn Arabiy, Bahouddin Naqshband, Maxdumi A'zam Kosoniy, Xoja Ubaydulla Ahror, Hidoyatullo Ofoqxoja, Mullo Bozor Oxund, So'fyi Olloyor tasavvufiy g'oyalari muhim rol o'ynaganligining fakti ham tasavvufiy dunyoqarash va tafakkur rivoji haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishni talab etadi.

Sobiq sovet tuzumi hukmronlik qilgan kommunistik mafkura davrida falsafa va jamiyatshunoslik Qur'oni karim, tasavvuf haqida gapirish emas, ularni bid'at, afyun deb e'lon qilgan, g'ayri ilm urchigan davr islom tasavvufi mohiyatini ilmiy asosda o'rganishga yo'l bermagan.

Biroq o'sha davrda taniqli sovet sharqshunoslari, akademiklar Ye.E.Bertels¹, I.P.Petrushevskiy², M.T.Stepanyans³ islom tasavvufi mohiyatini marksizm metodologiyasi asosida tadqiq etishga bag'ishlangan asarlar yaratgan.

Faylasuf Qodirqul Ruzmatzodaning fikricha, O'zbekistonda Yevropaga nisbatan juda kam tasavvuf adabiyoti tarixi bo'yicha sanoqli himoyalar bo'lgan, bu boradagi ishlar talab darajasidan pastligini ko'rsatmoqda.

Shunday bo'lsa-da, faylasuf olimlardan R.Shodiyev⁴, G.Navro'zova⁵, N.Safarova⁶, M.Mamatov⁷, adabiyotshunos olimlardan A.Abduqodirov⁸, I.Haqqulov⁹lar dissertatsiya himoya qilganlar.

Musulmon so'fiylari uni 1) arabcha "safo" so'zi bilan bog'laydilar (uning asosiy ma'nosi "poklik"; 2) ahli suff ("sufa kishilari"), bular Muhammad payg'ambarning mulksiz safdoshlari bo'lib, masjid yonidagi sufada yashaganlar; 3) "ahl as-saffa"-masjidda yoki Xudo oldida birinchi safda turuvchilardir¹⁰.

"Tasavvuf nafsning barcha istaklarini va zavqlarini tark etmoqdir"¹¹.

So'fizm falsafa ta'limoti sifatida dastlab eramizning VIII asrida paydo bo'ldi. Movarounnahrda esa u Eron orqali o'tib, bu yerda XI-XII asrlarda katta ta'sirga ega bo'ldi.

Buyuk o'zbek shoiri Boborahim Mashrab naqshbandiya tariqati yo'lidan borib, Ofoqxoja qo'lida ta'lim olib, Haqqa yetishdi va tasavvufning yirik vakili sifatida o'z g'azallari va "Mabdayi nur" asarida bu Haq yo'lini poklik, halollik va Allohga yetishishning yagona vositasidir, deb tavsiflaydi. Umrining oxirigacha naqshbandiya tasavvufi yo'lidan bordi.

Tasavvufning yirik namoyandalaridan biri Bahouddin Naqshband tariqatini davom ettirgan va rivojlantirgan, xalq orasida juda katta obro' qozongan shayx, avliyo Qashqarda yashagan Ofoqxoja Mashrabning piri edi¹².

Tasavvuf va tasavvuf falsafasi Turkiston, Xuroson va Eron, umuman, O'rta va Yaqin Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkurining eng muhim va o'ziga xos qismini tashkil etadi.

¹ Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. –Москва: Наука, 1965. – 524 с.

² Петрушевский И.П. Ислам в иране VII-XV веках. Курс лекций. Изд. Ленинградского университета, 1966. – 200 с.

³ Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1987. – 192 с.

⁴ Шодиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.). автореферат дисс. докт. филос. наук. –Самарканд, 1993. – С. 120.

⁵ Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Фалс. фан. док. дис. автореф. – Тошкент, 2002. – 32 б.

⁶ Сафарова Н. Фундаментализм, экстремизм ва терроризмга қарши ғоявий курашда тасаввуф таълимоти ва ирфоний қарашларнинг аҳамияти. Фалс. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 36 б.

⁷ Маматов М. Тасаввуф таълимотининг тарихий-фалсафий моҳияти. Фалс. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 36 б.

⁸ Абдуқодиров А. Тасаввуф ва Алишер Навоий ижодиёти (Вахдат ал-вужуд проблемаси бўйича). Филол.ф.докт. дисс. – Тошкент, 1993. – 56 б.

⁹ Ҳаққулов И.Ч. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами). Филол. фан. док. дис. – Тошкент: 1999. – 282 б.

¹⁰ Александр Книш. Муслмон тасаввуфи. Таржимон Қодирқул Рўзматзода. –Т.: Фан зиёси, 2022. –Б.18.

¹¹ Абу Абдурахмон Сулабий. Табақотус-суфийя. Миср, "Қоҳира", 1389. –Б.166.

¹² Ўша манба. –Б.267-268.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf mohiyatini falsafiy tushunish, din va tasavvuf ma'naviy hayotning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini e'tirof etishdir; G'arb mamlakatlarining sharqshunoslari so'nggi ikki yuz yil mobaynida tasavvufiy bilish Xudo, Olam va Inson mohiyatini bilishning ratsional bilishdan farqlanadigan alohida usuli ekanligini allaqachon isbotladilar.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "XVII-XVIII asrlarda Movarounnahr madaniy-ma'naviy hayoti va siyosiy vaziyat" deb nomlangan bo'lib, unda Boborahim Mashrab mana shunday siyosiy tushkunlik va chuqur inqiroz, jamiyat og'ir ahvolni boshidan o'tkazayotgan davrda yashab, ijod qilganligi o'rganilgan.

Mutafakkir shoir Boborahim Mashrab yashab, ijod etgan davrda Movarounnahrda dastlab ikkita – Buxoro va Xorazm xonliklari, XVIII asrning boshlarida esa (Ho'qand) Qo'qon xonligi tashkil topgan edi¹.

Ashtarxoniylar yoki joniylar hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601 – 1756) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat juda zaiflashdi, o'zaro urushlar nihoyatda avj oldi.

XVII-XVIII asrlarda Turkistonda hukmronlik uchun o'zaro kurashlar, parokandalik avj oldi. Mustaqil xonlikka ajrab chiqqan Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida hamda ularning o'zidagi ichki ziddiyatlar nihoyatda kuchayib, ular uzoq vaqt davomida notinchlikni boshlaridan kechirdilar.

Farg'ona vodiysidagi urug'lar ichida ming urug'i XVIII asr boshlariga kelib hukmron mavqeni egalladi. Urug' boshlig'i Shohruhbiy ibn Ashurbiy 1709-yilda Chodakda (hozirgi Pop tumaniga qarashli joyda) Farg'ona deb atalgan kichik mulkka asos soldi va keyin kattagina yer maydoniga ega bo'lgan bir butun davlat tashkil etdi.

Xiva bilan uzoq davom etgan urushlar Movarounnahrning umumiy iqtisodiy ahvoriga juda yomon ta'sir qildi va ashtarxoniylar davlatidagi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi.

Ashtarxoniylar davrida zodagonlarning og'ir jabr-zulmlari, o'zaro urushlar, ocharchilik va qashshoqlik xalq ommasini norozilik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Movarounnahrning turli viloyatlarida xalq harakatlari va qo'zg'olonlari bo'lib turdi. Abdulazizxon davrida Samarqand atrofidagi Dahbed qishlog'ida qo'zg'olon bo'lib, xon qo'shinlar bilan kelib, qo'zg'olonni o'zi bostirdi va qishloqqa o't qo'ydi.

Movarounnahr xalqlari bu davrda boy adabiyot yaratgani, ilg'or va iste'dodli allomalarni yetishtirganligini ko'rsatdi. So'fi Olloyor, Mirzo Bedil, Xojamnazar Huvaydo, Yusuf Qorabog'iy, Sayido Nasafiy, Muhammad Sharif Buxoriy, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab va boshqa zabardast so'z san'atkorlari yetishib chiqdi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "Boborahim Mashrab tarjimayi holi va ijodiy faoliyati" deb nomlangan. Unda Boborahim mulla Vali (Valibobo) o'g'li

¹ Хошимхонов М. Машраби мўътабар ўзум. Бобораҳим Машраб ижтимоий-маънавий, диний-тасаввуфий, ахлоқий мероси ва унинг илмий-бадий адабиётдаги талқини (XVII-XVIII асрлар). Учинчи жилд. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. –Б.9.

Mashrab o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotida xalqchilik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid‘atga qarshi kurash g‘oyalarining kuchayishida, she‘riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o‘rin tutgan so‘z ustalaridan biri ekanligi yoritilgan.

Mashrabning qo‘nimsiz, qalandarona hayoti va sarguzashtlari, imoni pokligi, sidqidildan Alloh vasliga erishishga intilishi, mutafakkir siymo sifatida shakllana borganligi oddiy xalq dilini rom qilgan¹.

Boborahim Mashrab ijodi bilan G‘arbiy Yevropa olimlari ham qiziqqanlar.

Qator manbalarda, chunonchi, Hakimxon To‘ranning “Muntaxab ut-tavorix”, Majzubning “Tazkirat ul-avliyo”, Mirza Olim Toshkandiyning “Ansab us-salotin” asarlarida Mashrabning namanganlik ekanligi aniq aytilgan.

Mashrabshunos A.Abdug‘afurov Mashrab “Tanlangan asarlar”iga yozgan so‘zboshida (1963, 1971), “Mashrab biografiyasining ba‘zi bir nuqtalari” (1978) ishida, “Boborahim Mashrab” tadqiqotida, “Erk va ezgulik kuychilari” (1979), “Mashrab qachon tug‘ilgan” maqolasida (“Adabiy meros”, 1980) shoirning tug‘ilgan yili, joyini manbalar asosida ilmiy jihatdan aniqlab, dalillab berdi. Mashrab tug‘ilgan shahar Maleho tazkirasida noto‘g‘ri ko‘rsatilganligini isbotladi.

Mashrabning o‘zi ta‘kidlagan:

Na malakman, na farishta, men ham odam naslidin,

Men tavalludi o‘shal farzandi Namangoniman,

satrlarining o‘ziyoq uning qaysi shaharda tug‘ilganligini aniq ko‘rsatib turibdi. “Namangonda... Mashrabi avliyoni hovli va tug‘ilgan yeri mahalla maxsusdir”,- deydi adib va olim Ishaqxon Ibrat “Tarixi Farg‘ona” asarida².

U Sharqiy Turkistonning ham hukmdori, ham diniy rahnamosi Hidoyatulloh Ofoqxoja dargohida ancha yil murid bo‘lib yuradi, uch yil o‘tin teradi, yana uch yil meshkobda suv tashiydi. Bir po‘stinni yetti yil yechmaganligini she‘rida eslatib o‘tadi. Boshiga tushgan hamma qiyinchilik-u riyozatlarga Haqqa yetishish uchun chidaydi. Pirovardida taqdiri ilohiyning sinoviga duch kelib, Ofoqxojaning buyrug‘i bilan qattiq tan jazosiga mahkum etiladi, pir dargohidan badarg‘a qilinadi. Mashrabning jahongashta, qalandarona hayoti, sarguzashtlari boshlanadi. Uning ko‘p shahar-qishloqlarni darbadar kezib, darvesh-qalandar shoir sifatida so‘fiyona g‘oyalarni targ‘ib etganligi ma‘lum³.

Shoirning Samarqand, Xo‘jand, Toshkent, Turkiston, Buxoro, Andijon, Badaxshon, Yaqin Sharqning qator o‘lkalariga borganligi haqida so‘zlanadi. Mashrabning adabiy merosida hayot yo‘lining qator nuqtalari jumlasida yuqorida sanalgan shahar-o‘lkalarning ko‘plari zikr etiladi. Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izsiz o‘tmas, ma‘lum shov-shuvlarga sabab bo‘lgan; oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan, hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko‘zi bilan sovuq qarshi olgan. Mashrab qo‘nimsiz hayotining so‘nggi nuqtasi Balxda ham xuddi shunday bo‘ldi: hokim tabaqa,

¹ Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б.46.

² Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. - Наманган, 2007. –Б.58.

³ Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б.47-48.

riyokor ruhoniylar, mutaassib mullolar unga o‘zlarining ashaddiy dushmani deb qaradilar va jisman yo‘qotish niyatida bo‘ldilar. Natijada “Tazkirayi Fahmiy”da qayd etilganidek, “dar soli 1123-hijriy dar Qunduz bafatvoi va hukmi Mahmudbiy Qatog‘on shahid karda shuda”, ya’ni “1123 hijriy (1711 milodiy) yilida Qunduzda (Balx viloyatida) ulamolarning fatvosi va Mahmudbiy Qatog‘on (Balx, Qunduz hokimi)ning hukmi bilan shahid bo‘ldi”. Otashin shoir, dovyurak shaxs, jasur qalb sohibi Boborahim Mashrab osib o‘ldirildi. U xuddi Mansur Xalloy va Imodiddin Nasimiy kabi hurfikr g‘oyalari yo‘lida, o‘sha zamonadagi hukmron tabaqalar va johil ulamolar rasmiy siyosatiga nomuvofiq dunyoqarashi yo‘lida qurbon bo‘ldi¹.

Mashrab falsafiy she‘riyatda, hech istisnosiz Navoiydan keyin yuksak she‘riyati bilan o‘ziga xos uslub yarata olgan jo‘shqin ijodkordir.

Hayotiy ishq-muhabbat mavzusi Mashrab ijodida Sharq she‘riyatining g‘azal, mustazod, murabba va muxammas, shuningdek, musaddas va musabba turlarida ishlandi. Bu guruh asarlari asosida tashvish va lazzatlarga to‘la insoniy sevgi yotganligini ko‘ramiz.

“Mabdayi nur” 176 ta diniy, afsonaviy, axloqiy hikoyatlardan, 30 ta ta‘limiy parcha, 35 ta g‘azal, 2 ta o‘zbekcha, 1 ta arabcha mustazoddan iborat².

Mashrab ijodida uning “Mabdayi nur” va “Kimyo” nomli she‘riy asarlari alohida o‘rin tutadi.

Shoh Mahmud Churosning “Tarix” risolasida keltirilishicha, Mashrab hayoti murakkab kechgan va u bergan ma‘lumotga ko‘ra, shoir Qunduzda dorga osilgan, she‘riyatidan ma‘lum bo‘ladiki, u mansurvordorni orzu etgan va shu yo‘lda shahidi a‘lo maqomiga yetgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Mashrabning tasavvuf ta‘limotiga munosabati**” deb nomlangan va uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf “Mutafakkir ijodiga mutasavvif allomalar ta‘siri” deb nomlangan. Tasavvuf va tasavvuf falsafasi Turkiston, Xuroson va Eron, umuman, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkurining eng muhim va o‘ziga xos qismini tashkil qilgan.

Tasavvuf bilan islom, musulmon jamoasi, shariat o‘rtasidagi munosabatlarning ziqlashuviga, Mansur Xalloy, Ayn-ul-Quzzot, Imodiddin Nasimiy, Badriddin Simaviy, Boboraxim Mashrab va boshqalarning qatl etilishiga, Boyazid Bistomiy, Ibn al-Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Muhammad Iqbol kabi tasavvuf mutafakkirlarni kufr, bid‘at va “Xudosiz”likda “ayblanishlariga” olib keldi³.

Mashrab piri komili Hidoyatulloh Ofoqxoja dargohida yetti yil so‘fiylik tariqatidan ogoh bo‘lib, jami islomiy va dunyoviy ilmlarni egallab bo‘lgach, pirning marhamati bilan avliyolik darajasiga yetishdi va qalandarlik rutbasini qabul

¹ Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир-ЎзР ФА академиги Хайруллаев М.М. Маънавият юлдузлари. –Т.: “Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти”, 1999. –Б. 286-287.

² Бобораҳим Машраб. «Мабдай нур». –Т.: «Фан», 1994. –Б. 7.

³ Юсупов Э. “Фалсафа”. Т.: 1999 –Б.76.

qilib, dunyoga chiqib ketdi. Mashrab piri Ofoqxoja g'azallarida madh etdi. Har joyda uni eslab, qalbi o'rtanib, e'zozlab g'azallar bitdi¹.

Mutafakkir "Jahonni tark qildi Mashrabo Ibrohim Adhamdek" misrasini keltiradi. Bu bilan u qalandarlik yo'liga kirganligiga ishora qilgan. Shoir asarlarida ko'proq jafo chekkan, Alloh yo'lida cheksiz azob-u uqubatlarga duchor bo'lgan tasavvuf ahli vakillarining obrazlari, nomlari keltirilgan. Talmih yo'li bilan o'zining e'tiqodiga bog'liq g'oyalarini ifodalashga, tashviq etishga harakat qilgan. Uning g'azallari orasida she'r matlasidan maqtasigacha talmeh, qiyoslash, tanosub sintezidan iborat namunalar ham uchraydi.

Menga irshod bersang, Odamu Havvoni hozir qil,
G'aribu xastaman, Nuhi nabiyullohni hozir qil,
matla'li g'azalida Namrud, Xalilullo, Ayyub, Zikriyo, Ahmad, Habibullo,
Hasan bilan Husayn, Zuhro va boshqa tarixiy-afsonaviy obrazlarga ishora bor².

Ibrohim Adham, Mansur Xalloy, Abu Bakr Shibliy, Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Boyazid Bistomiy, Attor, Nasimiy, Kubro, Naqshband, Ofoqxoja, Xoja Ahror kabi bu ulug' zotlarni Mashrab o'zining g'oyibona piri komili deb qabul qiladi. Ularni havas bilan takror va takror tilga oladi, alqaydi ularga o'zini qiyos etadi. Bu muborak zotlar bilan bog'liq bayt va g'azallar ham Mashrab dunyosining turli qarashlarini namoyon etadi.

Ikkinchi paragraf "Shoir she'riyatida tasavvuf ta'limotining tahlili" deb nomlangan. Mansur Xalloy–ilohiy ishq mayidan mast oshiq ramzi sifatida Sharq mumtoz so'z san'atida avj pardalarda talqin etilgan. Mansurni mehr-u muhabbat bilan tilga olmagan, uni ishq yo'lida o'ziga pir deb bilmagan, boshqalarga ibrat qilib ko'rsatmagan shoirlar o'tmish adabiyotimizda yo'q hisobi. Xususan, tasavvufda Mansur Xalloy va Boyazid Bistomiy yo'lini tutgan, sukra-mastlik yo'nalishi tarafdori bo'lgan Attor, Nasimiy, Mashrab kabi shoirlar uchun u ma'naviy pir darajasida edi.

Necha asrlarki Sharq she'riyatida, mutafakkirlar asarlarida Inson qalbini Ka'baga o'xshatib kelinadi. Mo'minning qalbi – Xudoning uyi. Uni vayron qilmoq – Ka'bani vayron qilmoq, uni shodlantirmoq – Ka'bani obod qilmoq bilan barobardir. Mana, Shoh Mashrab asarlarida davom ettirilgan, rivojlantirilgan, yanada yuksaltirilgan o'lmas g'oya!³

Tiriklik chog'ida va undan so'ng bir qancha zamon Mashrab oddiy xaloyiq orasida "devona Mashrab" degan nom bilan shuhrat qozongan. Unga Mashrabning o'zi asos bergan. U ongli suratda devonalik yo'lini tanlagan. Bir qancha g'azallarida o'zini devona deb ataydi. Devona ekanligini to'xtovsiz ta'kidlab boradi⁴.

¹ Хошимхонов М. Mashrab va XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy-axlokiy fikr rivoji. –Т.: "Mumtoz so'z", 2018. –Б.122.

² Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –Б.60.

³ Ўша манба, ўша жой.

⁴ Гафуров И. Хаё-халоскор. – Т.: Шарк, 2006. –Б.65.

So‘zi niyati, ishi benihoya toza siymo edi Mashrab. U: “Suratim garchi bashar keldi, malakdur siyratim” deganda, bu chiroyli so‘zlargina emas, bu uning shoir, inson va mutafakkirning chin ma’nodagi borlig‘i edi.

Mashrab ishqining buyukligi, izlashlarining buyukligi va insoniyat azoblarini o‘z ustiga olganligi va poklikning eng go‘zal maqomiga erishganligi, o‘zining ma’naviy kamolotning oliy cho‘qqilariga olib chiqa olgani bilan dunyoning – vijdoni deb atalishga loyiq. U mujassam vijdon edi. Uning buyukligi vijdon buyukligidir.¹

R.Orzibekov va I.G‘afurov kabi olimlar mutafakkir she‘riyati shuhrat qozonganligini, Mashrab o‘z davrining vijdoni ekanligini, uning buyukligi vijdon buyukligi ekanligini ta’kidlaganlar.

